

Journal of Social Research in Uzbekistan

**PRIORITY DIRECTIONS OF DEVELOPMENT OF TRADE AND ECONOMIC
RELATIONS IN CENTRAL AND SOUTH ASIA**

Sunnatilla I. Jabbarov

Master's student

National University of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Central Asia, foreign policy, trade turnover, South Asian countries, transport and logistics, historical commonality.

Abstract: in this article, the role of economic relations between Central Asia and South Asia in the foreign policy of countries and the importance of mutual trade relations are revealed by the author using current sources and published literature.

Received: 09.05.24

Accepted: 11.05.24

Published: 13.05.24

**MARKAZIY VA JANUBIY OSIYO SAVDO-IQTISODIY ALOQALARNI
RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI**

Sunnatilla I. Jabbarov

Magistratura talabasi

O'zbekiston Milliy universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, tashqi siyosat, savdo aylanmasi, Janubiy osiyo mamlakatlar, transport va logistika, tarixiy mushtaraklik.

Annotatsiya: ushbu maqolada muallif tomonidan Markaziy Osiyo va Janubiy Osiyo o'rtasadi iqtisodiy aloqalarning mamlakatlar tashqi siyosatida tutgan o'rni va o'zaro savdo aloqalarining ahamiyati masalalari joriy manbalar va nashr etilgan adabiyotlardan foydalangan holda ochib berilgan.

**ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ТОРГОВО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ
ОТНОШЕНИЙ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ И ЮЖНОЙ АЗИИ**

Суннатилла И. Джаббаров

студент магистратуры

Национальный университет Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Центральная Азия, внешняя политика, торговый оборот, страны Южной Азии, транспорт и логистика, историческая общность.

Аннотация: В данной статье автор раскрывает роль экономических отношений между Центральной Азией и Южной Азией во внешней политике стран и значение взаимных торговых отношений, используя современные источники и опубликованную литературу.

KIRISH

Markaziy Osiyo ulkan geostrategik va geoiqtisodiy ahamiyatga ega mintaq. Bu yerda 74 milliondan ortiq aholi yashaydi. Ularning tarixi va madaniyati, mamlakatlarimizning iqtisodiyoti va infratuzilmasi bog'lanib ketgan.

Prezident Shavkat Mirziyoev rahbarligida O'zbekiston mintaq mamlakatlari bilan do'stlik va yaxshi qo'shnichilik tamoyillariga tayangan holda faol va pragmatik siyosat olib bormoqda. Jumladan, keyingi yillarda siyosiy, savdo-iqtisodiy, transport-logistika hamda madaniy-gumanitar sohalarda ikki va ko'p tomonlama hamkorlik jadal sur'atlarda rivojlanmoqda. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan tarixan qisqa muddat ichida Markaziy Osiyoda prinsipial jihatdan mutlaqo yangi siyosiy muhit yaratildi.

ASOSIY QISM

Janubiy Osiyo iqtisodiy o'sish sur'atlari va qariyb 2 milliardlik aholiga ega ulkan bozor salohiyati bilan global iqtisodiyot markazlaridan biriga aylanmoqda. Bundan tashqari, Afg'oniston orqali Hind okeani portlariga tranzit Markaziy Osiyo mamlakatlariga eng qisqa yo'l orqali dengizga chiqish imkonini beradi va mintaqaning transport aloqasi darajasini bir necha barobar oshiradi.

Shu nuqtai nazardan, Janubiy Osiyo bilan har tomonlama o'zaro bog'liqlikni rivojlantirish Markaziy Osiyo davlatlari uchun strategik vazifaga aylanmoqda. Bu esa, eksport bozori kengayishini ta'minlash, iqtisodiyotning o'sish sur'atlarini, sanoatlashtirishni, transport-logistika holatini, mintaq, umuman, Markaziy Osiyoning iqtisodiy va sarmoyaviy jozibadorligini tubdan yaxshilash imkonini beradi.

Mahsulot va xizmatlar hamda investitsiyalarning erkin harakati uchun, transport-kommunikatsiya va energetika infratuzilmalarini shakllantirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish ushbu masalalar yechimiga amaliy hissa qo'shgan bo'lur edi.

Buning uchun ota-bobolarimiz majlis va qurultoylar, loyya jirg'a, vasi mushavarat va sabxa kabi yig'inlarda to'planganlaridek, mintaqadagi mamlakatlar o'rtasida dolzarb masalalarni muhokama qilish uchun investitsiyaviy hamkorlik va kooperatsiyani chuqurlashtirish, iqtisodiy aloqalarni kengaytirish bo'yicha yillik mintaqalararo forum o'tkazish zarur.

Bunday muloqotlar doirasida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar yangi ish o'rinlarini yaratish, iqtisodiyotlar salohiyatini rivojlantirish va ularning barqaror o'sishini ta'minlashga qaratilgan aniq dastur va loyihalarni uyg'unlashtirish imkoniyatini beradi.

Shuningdek, mintaqadagi mamlakatlar o'rtasida ko'ptomonlama Iqtisodiy hamkorlik bitimini tuzish masalasini qo'shma ekspertlik tahlilidan o'tkazish zarur.

O'zbekistonda keyingi yillarda ochiq tashqi siyosatning faollashuvi xorijiy mamlakatlar bilan ko'p qirrali va o'zaro manfaatli hamkorlik mustahkamlanishiga muhim poydevor bo'lmoqda. Jumladan, Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatlar sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar aloqalar sezilarli darajada kengaydi, xalqaro va mintaqaviy dolzarb muammolarni hal etishda xalqaro tashkilotlar bilan amaliy hamkorlik keng yo'lga qo'yilmoqda.

Prezidentimiz ilgari surgan yangicha tashqi siyosat tufayli Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy aloqalarni hamda transport sohasidagi o'zaro hamkorlikni rivojlantirish uchun ishonchli zamin yaratildi. Shu bilan birga, mamlakatimiz o'zaro manfaatli aloqalarni Osiyoning boshqa davlatlari doirasida kengaytirishda ham faollik ko'rsatib kelmoqda.

1-jadval.

**2020 yilda Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida o'zaro
(tovar bilan) savdosi (mln.doll)**

Markaziy Osiyo mamlakatlari	Qozog'iston	Qirg'iziston	Tojikiston	Turkmaniston	O'zbekiston	Jami	Markaziy Osiyo mamlakatlarining umumiy tashqi savdo aylanmasida ichki hududiy savdo ulushi (%)
Qozog'iston	-	796,2	791,4	128,0	2916,5	4632,1	5,5
Qirg'iziston	794,1	-	37,3	11,8	341,3	1184,5	21,0
Tojikiston	909,7	36,8	-	7,8	333,8	1288,1	28,3
Turkmaniston	145,9	8,0	12,2	-	440,3	606,4	4,5
O'zbekiston	2856,3	878,6	360,6	342,4	-	4437,9	13,3
Jami	4706,0	1719,6	1201,5	490,0	4031,9	121149,0	

Umuman olganda, Markaziy Osiyo mamlakatlari hududida 75,3 million aholi istiqomat qiladigan bozor shakllanadi. 2020 yilda mintaqaning umumiy yalpi ichki mahsuloti hajmi 291,1 milliard dollarni, tashqi savdo aylanmasi 142,5 milliard dollarni tashkil etdi (1-jadval).

Markaziy Osiyo mamlakatlari iqtisodiyoti so'nggi yillarda 5-7 foiz oralig'ida yuqori o'sish sur'atlariga ega bo'ldi, hatto 2020 yilgi koronavirus pandemiyasi tufayli yuzaga kelgan inqiroz davrida ham bu boradagi ko'rsatkichlar faqat Qozog'iston va Qirg'izistonda salbiy jihat kasb etdi. Jahon banki prognozlariga ko'ra, Markaziy Osiyo davlatlari 2021 yilda YaIM o'sishining ijobiy dinamikasini tiklash va 2022 yilda o'sish sur'atini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

2020 yilda Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida umumiy savdo aylanmasi (xizmatlar savdosidan tashqari) 12,2 milliard dollarni, umumiy tashqi savdo aylanmasi 145,5 milliard dollarni tashkil etdi. Bundan tashqari, ularning umumiy tashqi savdo aylanmasida ichki hududiy savdo ulushi 8,4 foizga teng bo'ldi (2-jadval).

2-jadval.

Markaziy Osiyo mamlakatlarining YaIM o'sish sur'atlari dinamikasi

(%)	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y. (prognoz)	2022 y. (prognoz)
Qozog'iston	4,1	4,1	4,5	-2,6	2,5	3,5
O'zbekiston	4,5	5,4	5,6	1,6	4,3	4,5
Turkmaniston	6,5	6,2	6,3	1,8	-	-
Qirg'iziston	4,5	3,8	4,5	-8,6	3,8	4,5
Tojikiston	7,1	7,3	7,5	4,5	3,5	5,5

Shu bilan birga, Markaziy Osiyo davlatlarining o'zaro ichki hududiy savdoda ishtirok etish darajasi turlicha ekanini ta'kidlash lozim.

Masalan, mintaqaning umumiy savdo aylanmasiga nisbatan ular o'rtasidagi savdo hajmida Qozog'iston va Turkmanistonning ulushi eng past bo'lib, tegishlicha 5,5 va 4,5 foizni tashkil etadi. Tojikiston va Qirg'izistonning ichki hududiy savdodagi ishtiroki eng yuqori bo'lib, tegishlicha 28,3 va 21,0 foiz atrofida bo'lib kelyapti. O'zbekiston 13,3 foiz ko'rsatkich bilan o'rta o'rinni egallaydi.

Qozog'iston va Turkmaniston tashqi savdosi, asosan, MDH mamlakatlariga (Evropa, Xitoy, Rossiyaga) yetkazib beriladigan uglevodorodlarning eksportdagi ustunligi tufayli mintaqaviy bozorga kamroq e'tibor qaratadi va importning aksariyati ham shu mamlakatlarga to'g'ri keladi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari tovar eksportining asosiy qismi qazilma tabiiy boyliklar va ularni birlamchi qayta ishlash mahsulotlari (barcha tovar eksportining 70-80 foizigacha) bulishiga qaramay, ular bu borada o'zaro nisbatan ancha kam darajada bir-biri bilan savdo qiladi.

Jumladan, 2020 yilda Tojikistonning umumiy eksport hajmida oltinning ulushi 58,1 foizni, Qirg'izistonda 50,2 foizni va O'zbekistonda 38,3 foizga teng bo'lsa, Qozog'istonning 66 foizga yaqin tashqi savdosini asosan Yevropa Ittifoqi mamlakatlariga sotiladigan mineral mahsulotlar tashkil etdi. Turkmaniston eksportining asosiy ulushi yoki qariyb 70-80 foizi tabiiy gazi bo'lib, u asosan Xitoyga yo'llanadi.

Shu bois, ularning uchinchi mamlakatlarga eksporti (neft, gaz va qimmatbaho metallar) hajmlarini hisobga olmasak, Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi o'zaro savdo ulushi ancha yuqori bo'ladi. Bunda foydali qazilmalar bo'lmagan tovarlar uchun Markaziy Osiyo davlatlari mintaqadagi barcha mamlakatlar manfaatlariga javob beradigan ichki hududiy savdo hajmini, ayniqsa, tayyor mahsulotlarni ko'paytirish uchun katta istiqbolga ega.

Bundan tashqari, Markaziy Osiyo davlatlari mintqa doirasida savdo operatsiyalarini amalga oshirishda tovarlar yetkazib berish uchun eng qisqa masofalarga ega va bu ularga transport xarajatlarini tejashda afzalliklar beradi. Mintaqada xalqaro transport yo'laklari va infratuzilmasini hamkorlikda yaratish esa eksport mahsulotlarini jahon bozorlariga yetkazib berishda transport xarajatlarini kamaytirishga imkon yaratadi.

Ta'kidlash kerakki, Markaziy Osiyo mintaqasining barcha mamlakatlari eksport hajmini oshirish va ularning tashqi savdosini diversifikatsiya qilish, yangi tashqi bozorlarga chiqish, shuningdek, yangi transport yo'llarini yaratish va ulardan foydalanishdan manfaatdor. Iqtisodiy hamkorlikning samarali tashkil etilishi har bir davlatning keng ko'lamli islohotlarni va demokratik o'zgarishlarni muvaffaqiyatli ruyobga chiqarishda, xalqaro maydonda o'z nufuzini mustahkamlashda va aholi farovonligining oshirishini ta'minlashda eng muhim omillardan biri hisoblanadi.

Termiz – Mozori Sharif – Kobul – Peshovar temir yo'l tarmog'i mintaqalarimiz o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik arxitekturasining asosiy bo'g'iniga aylanishi kerak. Ushbu loyiha yetakchi xalqaro moliya institutlari tomonidan ham faol qo'llab-quvvatlanmoqda.

Bu temir yo'l tarmog'ining qurilishi har ikki mintaqaning tranzit salohiyatini to'la ro'yobga chiqarish, Janubiy Osiyo va Yevropa mamlakatlari o'rtasida Markaziy Osiyo va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi hududi orqali o'tadigan eng qisqa yo'lni ochish, shu bilan birga, yuklarning turib qolishi va tashish muddatlarini sezilarli darajada qisqartirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, ushbu transchegaraviy temir yo'lni foydalanishga topshirish Markaziy va Janubiy Osiyo mamlakatlarining inklyuziv iqtisodiy rivoji uchun mustahkam zamin yaratadi. Mazkur temir yo'l tarmog'i Hind-Gang tekisligini Taksila, Gandara, Termiz singari tarixiy shaharlar orqali Yevroosiyoning janubiy hududi bilan bog'lagan, Uttarapatxa nomi bilan ma'lum qadimgi shimoliy savdo yo'lining o'ziga xos zamonaviy shakli bo'ladi.

Hindistonni Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan bog'laydigan "Shimol – Janub" transport koridori mana shunday transmintaqaviy infratuzilmani hayotga muvaffaqiyatli tatbiq etishning yorqin namunasidir.

Bundan tashqari, Transafg'on temir yo'l qurilishi loyihasi kelgusida mamlakatlarni Xitoy va Osiyo-Tinch okeani mintaqasining boshqa yetakchi davlatlari bilan bog'lashi mumkin. Bu esa "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi maqsadlari bilan ham uyg'unidir.

Zamonaviy o'zbek-turkman muloqotida savdo-iqtisodiy, transport va logistika sohalariga alohida e'tibor qaratilgan. Ikki mamlakat Prezidentlari transport sohasi iqtisodiy hamkorlikning ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanini bevosita ta'kidlamoqda. Turkmanobod-Farob avto va temir yul ko'priklarining ochilishi yuksak baholanib, Janubiy va Markaziy Yevropa, Yaqin Sharq, Janubiy va Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlariga transkavkaz transport yo'lagi hamda O'zbekiston —

Turkmaniston — Eron — Umon xalqaro transport yoʻnalishi ochilishi Toshkent va Ashxobod oʻrtasidagi aloqalarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Savdo, tranzit, chegaralardan oʻtish borasida raqamli hamkorlikni kuchaytirish boʻyicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish va Qoʻshma harakatlar strategiyasini qabul qilish zarur.

Bu jarayonga mamlakatlarimiz va BMTning ixtisoslashgan tuzilmalari yetakchi ekspertlarini keng jalb etish muhimdir.

Zamonaviy iqtisodiyotda axborot resurslari, axborot texnologiyalari va axborot tizimlari birligida quyidagi omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega:

- zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan biznes infratuzilmasining mutlaqo yangi turini yaratish;

- axborot texnologiyalari va mahsulotlariga investitsiyalar ulushining koʻpayishi, chunki hozirgi kunda korxonaning muvaffaqiyati uning hajmiga emas, balki tezligi, moslashuvchanligi va global tarmoqlardan foydalanish qobiliyatiga bogʻliq;

- zamonaviy aloqa vositalaridan foydalangan holda, kompaniyalararo va ularning ichidagi aloqalar sonining koʻpayishi, ierarxik tuzilmalar asta-sekin gorizontall tizimlar bilan almashtirilmoqda;

- axborot qurilmalari narxini keskin pasayishtirishga qaratilgan yakuniy foydalanuvchilar uchun axborot mahsulotlari va xizmatlari sektorining ortishi;

- mahsulotlar va xizmatlarning elektron bozorlarini jadal rivojlantirish;

- xalqaro biznes yuritish shartlarini erkinlashtirilishi natijasida global miqyosda axborot oqimi ustidan davlat nazoratining kamayishi;

- yangi faoliyat turlarining vujudga kelishi va yangi iqtisodiyotda talab qilinadigan mutaxassislar nomenklaturasining oʻzgarishi.

Raqamli platformalarning rivojlanish sohasidagi yorqin misollardan biri sifatida Alibaba elektron savdo tizimiga ega boʻlgan Xitoy kompaniyasini keltirib oʻtish mumkin. Undan foydalanish tajribasi shuni koʻrsatadiki, maʼlumotlar toʻplash jarayoni iqtisodiyotning turli sektorlariga ekspansiya uchun oʻta raqobatli ustunliklar yaratadi. Alibaba bu – oddiygina raqamli platforma emas, balki platformalar ekotizimidir. Tushunarliki, bunday ekotizim qudrati alohida platformalar kuchidan katta boʻladi. Hatto AQSh ham hozirgi kunda bu poygada yutqazmoqda, chunki u yerda turli platformalarni integratsiya qilishga toʻgʻri keladi, Xitoyda esa bu sohada rivojlanish samaradorlikni oshirish hisobiga – bir platformadan boshqa platformaga qarab oʻtish asta-sekinlik bilan roʻy berdi.

Ekotizimlarning rivojlanishiga quyidagilar taʼsir etadi:

- Investitsiyalarning oʻsishi;

- Maʼlumotlarni saqlash tizimlarini takomillashtirish;

- Internetga bogʻlanish tezligini oshirish;

- Sun'iy intellekt sohasidagi ishlar;
- Giperkonvergent bozor infratuzilmasinin rivojlanishi;
- Bulutli xizmat ko'rsatishni o'sishi (IaaS).

Raqamli transformatsiya manfaatdor tomonlar tomonidan qo'llab-quvvatlanadi:

• davlat tomonidan – sohani tartibga solish, normalar va tartib-qoidalarni belgilash, qo'llab-quvvatlash choralarini ta'minlash nuqtai nazaridan, shuningdek, raqamli paradigмага o'tish uchun ishlab chiqarish liderlarini rag'batlantirish;

• iqtisodiyot tarmoqlarining yetakchi korxonalari tomonidan – ekspertlar hamjamiyatini birlashtirish, ma'lumot almashish doirasida rivojlanish uchun resurslar va ularga kirishda raqamli xizmatlar, standartlashtirish, ishonch va xavfsizlik darajasini ta'minlash;

• innovatsion kompaniyalar tomonidan – yangi raqamli xizmatlar va iste'molchilarga mo'ljallangan mahsulotlar paydo bo'lishining asosiy drayveri sifatida ko'rish.

XULOSA

So'nggi vaqtda asosiy oziq-ovqat mahsulotlarining narxi jadal o'sib borayotgani, dunyoning ba'zi mintaqalarida aholi keskin oziq-ovqat taqchilligini boshidan kechirayotgani kuzatilmoqda.

Bunday tahdidlarni bartaraf etish bo'yicha Dastur ishlab chiqish uchun BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) shafeligida mamlakatlar qishloq xo'jaligi vazirlarining uchrashuvini o'tkazish muhimdir.

Bularning barchasi pirovardida O'zbekistonning barcha yirik tashqi iqtisodiy sheriklari bilan munosabatlarini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi hamda rivojlangan davlatlar, Hindiston, Eron, Pokiston singari jadal sur'atlar bilan ravnaq topayotgan mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning "Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy o'zaro bog'liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar" mavzusidagi xalqaro konferensiyadagi nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/4484>
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017.- 592 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning " Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvi" dagi nutqi <https://president.uz/uz/lists/view/4534>
4. Mirziyoev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasi. // Xalq so'zi. 2020 yil 29 dekabr.
5. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi. <http://president.uz/uz/lists/view/1063>.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Samarqand shahrida o'tkazilgan «Markaziy Osiyo yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lida hamkorlik» mavzusidagi xalqaro konferensiyada so'zlagan nutqi. <http://www.press-service.uz/uz/lists/view/1227>